

Amina MELIKOVA,
san'atshunoslik bo'yicha falsafa doktori



Nomga munosib bo'lish baxti



“Tarix davomida shakllarning oqimga oʻxshash harakatchanligi islom meʼmorchiligiga xos boʻlib kelgan. Bu yerda koʻplab panjarasimon tuzilmalar yoki ustunlar ketma-ketligi oʻrmondagi daraxtlar singari cheksizlik sari oqib boradi va iyerarxik makon hosil qiladi. Uzluksiz kalligrafik va naqshli bezaklar gilamlardan devorlarga, devorlardan shiftlarga, shiftlardan gumbazlarga oqib oʻtib, meʼmoriy unsurlar bilan atrof-muhit oʻrtasidagi chegaralarni goʻyo yoʻq qiladi, ularning orasidagi farqni xira-

lashtiradi. Biz ana shu tarixiy meʼmoriy qarashga yangi turtki berishni va anʼanaga tayangan yangi oʻzlikni yaratishni maqsad qilgan edik”, – deb taʼriflagan edi mashhur meʼmor Zaha Hadid oʻzining eng sevimli loyihalaridan biri – “Haydar Aliyev markazi”ning gʻoyaviy mazmunini.

Taʼkidlash joizki, Haydar Aliyev markazi 2014-yilda “Design Museum” tomonidan “Yil dizayni” (“2014 Design of the Year”) mukofotiga sazovor boʻlgan. Ushbu meʼmoriy ansambl kompozitsiyasi shakllarning parvozi bilan

tasavvurni hayratga soladi; u atrof manzarasiga nihoyatda uyg'un singib ketgan.

Haydar Aliyev markazi Ilham Aliyev farmoni bilan tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi davlat qurilishi falsafasi, ozarbayjonchilik mafkurasi hamda Haydar Aliyev merosini keng targ'ib qilish, shuningdek Ozarbayjon tarixi va madaniyatini mamlakat ichida ham, xorijda ham ommalashtirishdan iboratdir. Markaz binosining poydevori 2007-yil 10-sentabrda qo'yilgan, rasmiy ochilish esa 2012-yil 10-may kuni – Haydar Aliyev tavalludining 89 yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan. U uzoq yillar davomida Ozarbayjonni avval sobiq ittifoq davrida, keyinchalik esa mustaqillik yillarida boshqargan edi.

Bugun bu inshoot o'zining noyob va innovatsion me'moriy yechimi bilan jahon me'morchiligining muhim namunalari qatoridan o'rin olgan.


Markaz qurilishi uchun Boku shahriining chekkasida, ilgari Sattarxon nomidagi mashinasozlik zavodi joylashgan 16 gektarlik maydon ajratilgan. Relyefdagi baland-pastliklar va tabiiy terrasalar imkoniyatidan ustalik bilan foydalangan Zaha Hadid murakkab fazoviy bog'lanishlar yaratishga muvaffaq bo'ldi. Diqqat bilan qarsalsa, markaz geometriyasini ishlab chiqishda

me'mor deyarli barcha to'g'ri chiziqlardan voz kechganini payqash mumkin. Bu esa tabiatda to'g'ri chiziqlar yo'qligini ta'kidlab kelgan mashhur me'mor Antoni Gaudining fikrlarini yodga soladi.

Bu yerda me'moriy va ramziy ma'no uyg'unligi nihoyatda nozik ifodalan-

gan. Parametrik dizayn va zamonaviy materiallar yordamida Hadid shunday inshoot yaratdiki, unda me'morchilik bilan landshaft, bino fasadi bilan shahar maydoni, inson qo'li bilan yaratilgan obyekt bilan yer yuzasi, ichki makon bilan tashqi muhit o'rtasidagi farqlar deyarli sezilmaydi.

Markaz hali qurilish jarayonidayoq jahon ommaviy axborot vositalarining e'tiborini tortgan. Qurilish jarayoni "Build It Bigger"



nomli dasturda ham namoyish etilgan bo'lib, u "Discovery Channel" va "Science Channel" kanallarida e'fira uzatilgan. Eng jasur muhandislik loyihalari va zamonaviy me'moriy mo'jizalarga bag'ishlangan ushbu ko'rsatuv boshlovchisi Danny Forster markaz haqida shunday degan edi: "Bu shunchaki madaniyat markazi emas – bu o'z o'ringni dunyoga tanitishning bir yo'lidir".

Kelajak sari intilish nafaqat binoning o'z qiyofasida, balki uning atrofidagi 13,58 gektarlik keng park hududida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu yerda keng yashil maysazorlar geometrik shakldagi suv havzalari va yorug' zinapoyali yo'laklar bilan almashinib boradi. Bejiz emas, 2013-yil kuzida ushbu loyiha "World Architecture Festival" doirasida mutaxassislarning yuksak e'tirofiga sazovor bo'lgan. Nufuzli "Pritzker Architecture Prize" mukofotining ilk



ayol laureati bo'lgan Zaha Hadid bu yerda ham post-modernizm ruhiga sodiq qolgan: ko'zni qamashtiruvchi oppoq rang portlashi tomoshabinda unutilmas taassurot qoldiradi.

Haydar Aliyev markazining me'moriy yechimlari ikki asosiy tizim uyg'unligiga tayanadi: beton konstruksiya va ko'plab fazoviy karkaslar tizimi. Keng va uzluksiz ichki makon yaratish uchun vertikal konstruktiv elementlar panellar hamda osma devorlar tizimi ortiga yashirilgan.


Bino qoplamasining me'moriy ishlanmasi post-modernizm ustasi uchun loyihaning eng muhim, ayni paytda eng murakkab jihatlardan biri bo'lgan. Muallif tasavvuriga ko'ra, qoplama shakllari bir-biriga to'liqlar singari yopirilib kelayotgandek taassurot uyg'otadi. Tom qismi turli geometrik shakldagi 12 027 paneldan tashkil topgan. Binoning karkasini hosil qiluvchi temir konstruksiyalarining umumiy uzunligi 90 kilometrga yetadi. Uchburchak, to'rtburchak va trapetsiya shaklidagi elementlar 4 gektar maydonni egallaydi. Panellarga zarur shakl vakuum yordamida berilgan.

Qoplama uchun maxsus shisha tolasi bilan mustahkamlangan poliestere materiallari tanlangan, chunki ular konstruksiyaga maksimal plastiklik berib, turli funksional talablarni qondira oladi. Panellarning oq rangi nafaqat yorqin kelajak ramzi, balki quyosh nurlari yordamida binoning o'ziga xos qirralarini ta'kidlab beradi. Kun davomida tabiiy yorug'lik o'zgarishi bilan binoning qiyofasi ham o'zgarib boradi. Ichki yoritish esa tungi manzarani yaratadi: ichkaridan



tashqi yuzalarga yo'naltirilgan nur oqimlari kompozitsiyaning shakliy tuzilishini ochib beradi va ichki hamda tashqi makon o'rtasidagi uyg'unlikni saqlab turadi.

Bino qobig'i unga tashqi tomondan yaxlit, monolit ko'rinish beradi. U uzluksiz hajm sifatida o'qiladi va go'yo yer bag'riga yoyilgandek, atrof maydon yuzasiga ham tutashib ketadi. Markazga olib boruvchi keng zinapoyali xiyobonlar orqali tepaga ko'tarilar ekansiz, ulardan shahar manzarasi ko'z o'ngingizda ochiladi. Yo'l-yo'lakay vertikal devorlar bo'ylab shars-hara misol oqib tushadigan favvoralar bilan chegaralangan keng maydonchalar uchraydi; suv esa sun'iy hovuzlarning keng kosalariga quyiladi.






Oppoq tog' cho'qqisiga o'xshab ulkan shahar uzra qad rostlagan Haydar Aliyev markazi me'mor fantaziya-sining mahsuli sifatida g'oyat nafis shakllarda mujassam bo'lgan, go'yo bu shakllarga shamol va suv uzoq yillar

sayqal bergandek. Binoning eng baland nuqtasi 74,1 metrga yetadi, ichki maydonlarining umumiy hajmi esa 101 801 kvadrat metrni tashkil etadi. Bu turli ko'rgazmalar uchun ajratilgan eng katta makonlardan biridir.

Majmuaning eng baland qismidagi zallarda doimiy va vaqtinchalik ekspozitsiyalar joylashgan bo'lib, ular ozarbayjon madaniyatining o'ziga xosligini yorqin aks ettiradi. Muzey zallarini to'ldirgan mayin yorug'lik oqimi orasida namoyish etilgan eksponatlar tomoshabinni xotirjam va mulohazali tarzda ularni tomosha qilishga chorlaydi. Ekspozitsiyalarda madaniy merosning turli sohalari – milliy liboslar, hunarmandchilik buyumlari, idish-tovoqlar, musiqa asboblari (ularning ovoz yozuvlari bilan birga) namoyish etilgan.

Markazning asosiy binosi uch bo'limdan iborat: Haydar Aliyev muzeyi, ko'rgazma zallari va "Auditorium". To'qqiz qavatli ko'rgazma bo'limida ekspozitsiya zallari, ma'muriy ofislar, shuningdek restoran va kafe joylashgan. To'rt qavatli "Auditorium" esa asosiy auditoriya, ikki konferensiya zali, rasmiy uchrashuvlar va yig'ilishlar xonalari hamda media-markazdan iborat. Bino hududida manzarali landshaft maydoni ham yaratilgan bo'lib, unda turli dekorativ daraxtlar va gullar ekilgan. Mehmonlar markaz va unda o'tkaziladigan tadbirlar haqida ma'lumot olishlari uchun interaktiv axborot kiosklari ham faoliyat ko'rsatadi.





Haydar Aliyev muzeyi. Muzeyning birinchi qavatida Haydar Aliyev davlat faoliyati davomida foydalangan hukumat avtomobillari kolleksiyasi namoyish etilgan. U avval 1969 – 1982-yillarda Ozarbayjon Kompartiyasi Markaziy Qoʻmitasining birinchi kotibi, keyinchalik esa 1993 – 2003-yillarda mustaqil Ozarbayjon prezidenti boʻlgan davrlarida aynan shu avtomobillardan foydalangan.

Muzeyning qolgan eksponatlari siyosiy yetakchi hayoti orqali mamlakat tarixini, davlatlilikning shakllanish jarayonini, iqtisodiyot, madaniyat va sport sohalaridagi yutuqlarni aks ettiradigan tarzda joylashtirilgan. Qayta tiklangan ish xonasi interyeri, mukofotlar va sovgʻalar bilan bir qatorda, tashrif buyuruvchilar foto-xronika bilan ham tanishishlari mumkin. Shuningdek, interaktiv zalda globus yordamida Aliyevning turli davlat rahbarlari va taniqli siyosiy arboblardan uchrashuvlari vizual tarzda namoyish etiladi.

Uch qavatli muzey binosida Haydar Aliyevning hayot yoʻli foto va videomateriallar orqali yoritib berilgan. Muzey binosining dizayni qanchalik oʻziga xos boʻlsa,

undagi ekspozitsiya mazmuni ham shunchalik betakror. Aliyevning tarjimai holi (1923 – 2003) bilan bir qatorda, tashrif buyuruvchilar Ozarbayjonning eng yangi tarixining turli bosqichlarida yuz bergan muhim ijtimoiy-siyosiy voqealar haqida ham maʼlumotga ega boʻladilar.

Aliyevning sovet davridagi hamda mustaqillik yillaridagi faoliyatining ayrim jihatlari “Suratlarda muhrlangan hayot”, “Ozarbayjonning ijtimoiy-siyosiy hayoti”, “Davlatchiligimiz, merosimiz, yutuqlarimiz” kabi boʻlimlarda virtual shaklda namoyish etilgan. Har bir mavzuga oid audio maʼlumotlar ozarbayjon va ingliz tillarida taqdim etiladi.

Muzey tarkibida Aliyevning turli mamlakatlar rahbarlari bilan uchrashuvlarini aks ettiruvchi multimedia zali ham mavjud. Zalga oʻrnatilgan globusdagi istalgan mamlakatga qoʻl tekkizilganda, fon ekranida Haydar Aliyevning oʻsha davlat rahbarlari bilan tushgan suratlari hamda unga taqdim etilgan sovgʻalarning tasvirlari paydo boʻladi. Bu sovgʻalarning oʻzi ham muzeyda namoyish etilgan. Shuningdek, zalda Aliyevning harbiy



va fuqarolik kiyimlari, ish stoli, orden va medallari ham ko'rgazmaga qo'yilgan.

"Ozarbayjon durdonalari: tarix oqimida" ko'rgazmasi. Markazning birinchi qavatida joylashgan ushbu ko'rgazma mamlakat tarixi va madaniy merosini aks ettiruvchi noyob eksponatlar bilan tanishish imkonini beradi. Bu yerda Gobustan qoya rasmlarining namunalari, qadimiy tangalar va zargarlik buyumlarini, o'rta asrlarga oid sopol hamda mis buyumlarni, qadimiy Qur'on, Injil va Tavrot nusxalarini ko'rish mumkin. Shuningdek, bu yerda an'anaviy ozarbayjon gilamlari hamda ularning ohangini tinglash mumkin bo'lgan milliy musiqa asboblari ham namoyish etilgan.

"Mini-Ozarbayjon" ko'rgazmasi. Markazning ikkinchi qavatida mamlakatning 45 ta tarixiy va me'moriy obidasining maketlari joylashgan. Bu yerda "Maiden Tower", "Momine Khatun Mausoleum", Boku temiryo'l vokzali binosi, Filarmoniya hamda "Ismailiyya Palace" kabi me'moriy yodgorliklarning miniatyura nusxalarini ko'rish mumkin. Shuningdek, sovet davri me'morchiligiga mansub "Government House" va "Green Theatre", zamonaviy me'morchilik namunalaridan esa "Boku Crystal Hall", "Flame Towers" hamda Ozarbayjon Neft jamg'armasining yangi binosi maketlari ham namoyish etilgan.

Klassik avtomobillar ko'rgazmasi. Bu yerda sehrli yoritish ostida XIX asr oxiridan to hozirgi kungacha turli mamlakatlarda yaratilgan jahon avtomobilsozligining haqiqiy durdonalari namoyish etilgan. Ko'rgazmada Germaniya, AQSh, Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya va sobiq sovet hududi mamlakatlariga oid avtomobillar o'rin olgan. Avtomobillardan tashqari, bu yerda asl benzin kolonkalari, foto va videomateriallar, shuningdek, mazkur mavzuga bag'ishlangan gazeta va jurnallar ham ko'rsatib qo'yilgan.

Vaqtinchalik ko'rgazmalar. Ochilganidan buyon Haydar Aliyev markazi devorlari dunyoga mashhur fotograf, haykaltarosh, rassom va dizaynerlarning ko'plab ko'rgazmalariga mezbonlik qilib kelmoqda. Ular orasida amerikalik pop-art rassomi Andy Warhol ham bor. Ozarbayjonda ilk bor o'tkazilgan ushbu ko'rgazmada rassomning yuzdan ortiq asari, jumladan qisqa metrajli filmlari ham namoyish etilgan.

O'tgan asrning mashhur ozarbayjon rassomi, "qattiq uslub" yo'nalishining asoschilaridan biri sifatida tan olingan Tohir Salohovning ko'rgazmasida esa yuzdan ortiq asar, jumladan, gilamlar ustiga ishlangan kartinalar ham taqdim etilgan. Markaz zallarida shuningdek mashhur haykaltarosh Zurab Tseretelining keng ko'lamli ko'rgaz-

masi o'tkazilgan, nemis tabiatshunos fotografi Teo Allofs hamda meksikalik haykaltarosh Jorje Marinning asarlari ham namoyish etilgan.

Haydar Aliyev markazning ichki makoni shunday tas-hkil etilganki, unda namoyish etilayotgan san'at asarlari va ijodkorlarning izlanishlari tomoshabinga eng haqqo-niy tarzda yetib boradi. Har bir ekspozitsiya interyer-ning me'moriy muhitiga uyg'un ravishda joylashtirilgan bo'lib, u o'ziga eng mos maydonda namoyon bo'ladi. Qavatdan qavatga ko'tarilgan sari markaz mehmonlari go'yo rang-barang bir kaleydoskop olamiga kirib bora-dilar: har bir yangi bo'lim boshqa bir muallifning san'at gullari bilan bezalgan go'zal manzarani ochib beradi. Bu yerda Salvador Dalí merosi turk abstraksion rassomi Devrim Erbilning shaxsiy ko'rgazmasiga tabiiy ravishda ulanib ketadi, "Hyperrealistic Sculpture. Almost Alive" ko'rgazmasi esa dunyoning 16 mamlakatidan keltirilgan badiiy qo'g'irchoqlar namoyishi bilan davom etadi.

Markazda o'tkaziladigan mavzuli ko'rgazmalar za-monaviy san'atning yirik namoyandalarini birlashtirib, turli madaniyatlarning vaqt va makondagi bog'liqligini yaqqol ko'rsatadi. Masalan, ozarbayjon – latviya qo'sh-ma ko'rgazmasi – "Osmon va yer orasida" – unda Reza Deghati va Ieva Krulina asarlari namoyish etilgan. "Tarix durdonalari" ko'rgazmasi doirasida esa Georgian National Museumning ozarbayjon va sharq kolleksi-yalariga mansub noyob eksponatlar, jumladan Irevon Sardar saroyiga oid namunalari ham ko'rgazmaga qo'yil-gan. Turli davrlarda bu yerda braziliyalik rassom Nina Pandolfoning grafiti ishlari, bahraynlik rassom Rashid Al Halifaning asarlari, shuningdek, "State Tretyakov Gallery" va "Museum of Russian Icons" kolleksiyalaridagi ikonalar hamda diniy haykallar ham namoyish etilgan.

Konsertlar, teatr sahnalari, konferensiya va simpozi-umlar. Haydar Aliyev markazining ko'p qatlamli me'mo-riy kompozitsiyasi bu yerda o'tkaziladigan tadbirlarning rang-barangligini ham ifoda etadi. Markazda tez-tez konsertlar uyushtiriladi. Eman yog'ochi panellari bilan qop-langan "Auditorium" zali o'zining ajoyib akustikasi bilan aj-ralib turadi. Bu sahnada Helikon-Opera aktyorlari, "Vienna Strauss Orchestra", "Vienna Chamber Orchestra", sakkiz karra "Grammy Awards" sovrindori bo'lgan vokal seksteti Take 6 hamda jahon opera san'ati yulduzlari chiqish qil-gan. Shu yerda "Qorabog' ovozi" musiqiy loyihasi ham taqdim etilgan bo'lib, u musiqaning chegarasi va til to'siq-lari yo'qligi haqidagi g'oyani yorqin aks ettirgan.

"Auditorium" sahnasi ko'pincha muhim ijtimoiy g'o-yalar maydoniga ham aylanadi. Turli mamlakatlar rah-barlari va delegatsiyalari ishtirokidagi konferensiyalar,




forumlar hamda mavzuli muhokamalar sivilizatsiya rivo-jida So'zning naqadar muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Shu ma'noda bu yerda o'tkazilgan mashhur ruhiy ustoz Sadhguruning ma'ruzalarini ham tilga olish lozim.

100 yillik yubiley tantanalari. Haydar Aliyev tavalludi-ni 100 yilligi nishonlangan yilda Markaz faoliyati yana-da jonlandi. Bayram tadbirlari bilan bir qatorda Aliyevga tegishli shaxsiy buyumlar va unga taqdim etilgan so-vg'alarning keng jamoatchilikka namoyish etilishi ham yo'lga qo'yildi. Bu eksponatlar xalqaro maydonda katta obro' qozongan davlat arbobining shaxsiyati haqida ya-nada to'liq tasavvur beradi.

Markazda o'tkaziladigan tadbirlar san'at vositasida multikulturalizm g'oyalarini targ'ib etishga ham xizmat qiladi. Bu g'oya tarixan Ozarbayjon xalqining turmush tarzining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Multikulturalizm an'analarini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasi-ga Haydar Aliyevning o'zi ham katta ahamiyat bergan. Shubhasiz, bu ruh mashhur me'mor Zaha Hadid yarat-gan loyiha poydevoriga ham singdirilgan.







Kelajakka yo'naltirilgan mayin egri chiziqlari, jasur g'oyalar va betakror me'moriy yechimlar uyg'unligi bilan Markaz majmuasi go'yo bir oz eklektik ko'rinadi, biroq aynan shu rang-baranglikda o'ziga xos uyg'unlik yashirangan. Bu g'aroyib uyg'unlik madaniyatlar muloqotini ifodalaydi va Markaz o'z faoliyatining ilk kunlaridanoq ana shu muloqot uchun muhim maydonga aylangan. Zamonaviy me'morchilikning bu noyob asari ba'zan ulkan dengiz to'lqiniga, ba'zan qum barxaniga, ba'zan esa kelajak kosmik kemasiga qiyoslanadi.

"Men uchun bu loyiha go'yo yer bag'ridan uzilib, qanot yozish imkoniyatidek bo'ldi", – degan edi Zaha Hadid Boku shahridagi Haydar Aliyev Center haqida. Uning bu ijodi Ozarbayjonning mustaqil va yuksak orzular sari intilayotgan mamlakat ekanini butun dunyoga namoyon etdi.

Mehmonlar fikrlari. Internetdagi turli platformalarda qoldirilgan ko'plab sharhlarga nazar tashlansa, ularning deyarli barchasida markazning betakrorligi alohida ta'kidlanadi.

Mariya Olxovikova (2-may, 2023 yil, sayyoh): "Binoning tashqi ko'rinishi nihoyatda go'zal, ichki makoni esa juda keng va havodor... ham chiroyli, ham hayratlanarli. Qavatlar go'yo oqib tushayotgandek, burchaklar umuman yo'q. Bekorga Zaha Hadidni egri chiziqlar malikasi deyishmaydi. Albatta tashqaridan ham tomosha qilish kerak".

Oleg Kolsanov (19-may, 2023 yil, sayyoh): "Juda g'ayrioddiy bino, hayratlanarli me'morchilik. Birorta ham to'g'ri chiziq yo'q – haqiqiy kosmik dizayn".

Yelena Petrova (23-dekabr, 2021 yil, sayyoh): "Bu men ko'rgan eng noodatiy me'moriy asarlardan biri. Futuristik





dizayni va jasur g'oyaning nafis ifodasi jihatidan Haydar Aliyev Centerga teng keladigani yo'q. To'g'ri chiziqsiz va burchaksiz bu g'aroyib bino go'yo muzlab qolgan ulkan oq to'liqinni eslatadi. Atrofdagi bezak o'simliklar, rang-barang haykallar, manzarali hovuz va yam-yashil hudud ko'zga quvonch, qalbg'a esa huzur bag'ishlaydi".

Valeriy L (2022, Tripadvisor): "Shahar qanchalik ko'plab qiziqarli binolarga boy bo'lmasin, menimcha eng hayratlanarli me'moriy asar aynan shu. Binoni har tomondan tomosha qilish – katta zavq. Ichkaridagi interyerlar esa unutilmas".

Mohammad A (Dubay, 2023, Tripadvisor): "Bu markaz Ozarbayjon haqida bilishingiz kerak bo'lgan deyarli hamma narsani ko'rsatadi. Sayohatni aynan shu yerdan boshlashni tavsiya qilaman".

Aminadav B (Tel-Aviv, 2022, Tripadvisor): "Binoning me'morchiligi noyob. Har bir egri chiziq va har bir burchak did bilan o'ylangan. Ko'rgazmalar ham chiroyli, ammo eng katta taassurotni aynan bino arxitekturası qoldiradi". 🌟

